AMALIY MASHG`ULOT TOPSHIRIQLARI
“DIFFERENSIAL GEOMETRIYA”

Skalyar argumentli vektor funksiya.

Reja:

1. Ta'rifi va belgilanishi
2. Vektor funktsiya $\vec{r}(t)$ ning koordinatalari
3. Misollar

Tayanch tushuncha va iboralar:

Vektor funksiya, cheksiz kichik vektor, vektor–funksiya-ning koordinatalari, o`zgaruvchi vektorning limiti, ketma-ketlikning limiti, vektor–funksiyaning uzluksizligi, vektor–funksiyaning orttirmasi, hosila, differensiallanuvchi vektor-funksiya.

R to`g`ri chiziqdagi bog`lanishli nuqtalar to`plami I bo`lsin. Agar $t \in I$ ning har bir qiymatiga biror qoida asosida $\vec{r}(t)$ vektor mos keltirilsa u holda I to`plamda $\vec{r} = \vec{r}(t)$ vektor – funksiya berilgan deyiladi.



1- chizma

Fazoda dekart koordinatalar sistemasi o`rnatilgan bo`lib, koordinatalar boshi O nuqtadan barcha $\overline{OM} = \vec{r}$ vektorlarni qo`ysak, u holda $t \in I$ parametrning o`zgarishi bilan vektorning M oxiri egri chiziq tashkil etadi, uni $\vec{r}(t)$ vektor-funksiyaning **godografi** deyiladi. (1- chizma)

Vektor- funksiyaning limiti va uzluksizligiga skalyar analizdagi kabi ta`rif beriladi.

**1-Ta`rif.** Har qanday $\varepsilon > 0$ son uchun $\delta > 0$ son mavjud bo`lsaki, barcha $t \in I$ uchun $0 < |t - t_0| < \delta$ bajarilganda $|\vec{r}(t) - \vec{a}| < \varepsilon$ o`rinli bo`lsa, u holda $\vec{a}$

o`zgarmas vektorni $\vec{r}(t)$ **vektor-funksiyaning limiti** deb ataladi. $\lim_{t\to t_0}\vec{r}(t)=\vec{a}$ yoki $\vec{r}(t)\underset{t\to t_0}{\to}\vec{a}$ belgilanadi.

2-Ta`rif.** Agar $\lim_{t\to t_0}\vec{r}(t)=\vec{r}(t_0)$ o`rinli bo`lsa, u holda $\vec{r}(t)$ vektor-funksiyani $t_0\in I$ nuqtada **uzluksiz deyiladi.



2- chizma

**3-Ta`rif.** $\lim_{\Delta t\to 0}\frac{\vec{r}(t+\Delta t)-\vec{r}(t)}{\Delta t}$ mavjud bo`lsa, u holda $\vec{r}(t)$ vektor-funksiya $t\in I$ nuqtada hosilaga ega deyiladi va uni $\frac{d\vec{r}}{dt}$ yoki $\vec{r}\,'(t)$ belgilanadi.

$\vec{r}(t)=\vec{r}(t_0)+\vec{r}\,'(t_0)\Delta t+\frac{(\Delta t)^2}{2!}\vec{r}\,''(t_0)+...+\frac{(\Delta t)^n}{n!}\vec{r}^{\,(n)}(t_0)+\vec{\varepsilon}(t_0,\Delta t)(\Delta t)^n$ ifodaga vektor-funksiyaning Teylor qatoriga yoyilmasi deyiladi.

Masala yechish namunalari

1. O`zgarmas $\vec{a}$ vektor $\vec{r}(t)$ vektor-funksiyaning limiti bo`lishi uchun $t_0\in[a,b]$ da $\vec{a}$ vektor koordinatalari $\vec{r}(t)$ vektor koordinatalarining limiti bo`lishi zarur va yetarli.

Isboti. (zaruriyligi) $\lim_{t\to t_0}|\vec{r}(t)-\vec{a}|=0$ o`rinli bo`lsin,

$\vec{a}\{\alpha,\beta,\gamma\},\ \vec{r}(t)\{x(t),y(t),z(t)\}$ vektorlarning mos koordinatalari uchun quyidagi tengsizliklar bajariladi.

$$|x(t)-\alpha|\le|\vec{r}(t)-\vec{a}|,\quad |y(t)-\beta|\le|\vec{r}(t)-\vec{a}|,\quad |z(t)-\beta|\le|\vec{r}(t)-\vec{a}|\ \Rightarrow \lim_{t\to t_0}|x(t)-\alpha|=0,\ \lim_{t\to t_0}|y(t)-\beta|=0,$$

$$\lim_{t\to t_0}|z(t)-\gamma|=0\ \Rightarrow \lim_{t\to t_0}x(t)=\alpha,\ \lim_{t\to t_0}y(t)=\beta,\ \lim_{t\to t_0}z(t)=\gamma \qquad (*)$$

(yetarliligi). (*) tengliklar o`rinli bo`lsin.

$$|\vec{r}(t)-\vec{a}|=\sqrt{(x(t)-\alpha)^2+(y(t)-\beta)^2+(z(t)-\gamma)^2}\le|x(t)-\alpha|+|y(t)-\beta|+|z(t)-\gamma|\to 0\ \Rightarrow$$

$\Rightarrow\ \lim_{t\to t_0}\vec{r}(t)=\vec{a}$ teorema isbotlandi.

2. $\vec{r}(t)$ vektor-funksiya $Б=\{\vec{i}_1,\vec{i}_2,...,\vec{i}_n\}$ kanonik bazisda $\{x_1(t),x_2(t),...,x_n(t)\}$ koordinatalarga ega bo`lsa, $x_1,x_2,...,x_n$ -larni aniqlang.

Yechish: $\vec{r}(t)=x_1(t)\cdot\vec{i}_1+x_2(t)\cdot\vec{i}_2+...+x_n(t)\cdot\vec{i}_n$ tengliklarning chap va o`ng tomonlarini mos ravishda $\vec{i}_1,\vec{i}_2,...,\vec{i}_n$ larga skalyar ko`paytiramiz

$$(\vec{i}_p\vec{i}_q)=\begin{cases}1,\ agar\ p=q,\\ 0,\ agar\ p\ne q\end{cases}\qquad (**)$$ qiymatlardan foydalansak

$$x_1(t)=(\vec{r}(t),\vec{i}_1),\ \ x_2(t)=(\vec{r}(t),\vec{i}_2),\ \ ...\ ,\ \ x_n(t)=(\vec{r}(t),\vec{i}_n)$$

3. $\lim_{t\to t_0}\vec{r}_1(t)=\vec{a}_1,\ \lim_{t\to t_0}\vec{r}_2(t)=\vec{a}_2$ bo`lsa, $\lim_{t\to t_0}[\vec{r}_1(u),\vec{r}_2(u)]=[\vec{a}_1,\vec{a}_2]$ ni isbotlang.

Isboti. $\vec{r}_i(t) = \vec{a}_i + \vec{\alpha}_i(t)$, bunda $\vec{\alpha}_i(t)$ cheksiz kichik o`zgaruvchi vektor, ya`ni $|\vec{\alpha}_i(t)| \to 0$

$[\vec{r}_1(t)\,\vec{r}_2(t)] = [(\vec{a}_1 + \vec{\alpha}_1(t))(\vec{a}_2 + \vec{\alpha}_2(t))] = [\vec{a}_1\vec{a}_2] + [\vec{a}_1\vec{\alpha}_2(t)] + [\vec{\alpha}_1(t)\,\vec{a}_2] + [\vec{\alpha}_1(t)\,\vec{\alpha}_2(t)]$.

$\lim\limits_{t\to t_0}[\vec{a}_1\vec{a}_2] = [\vec{a}_1\vec{a}_2]$; $\lim\limits_{t\to t_0}[\vec{a}_1\vec{\alpha}_2(t)] = 0$, $\lim\limits_{t\to t_0}[\vec{\alpha}_1(t)\,\vec{a}_2] = 0$, $\lim\limits_{t\to t_0}[\vec{\alpha}_1(t)\,\vec{\alpha}_2(t)] = 0$ bo`lganidan

$$\lim_{t\to t_0}[\vec{r}_1(t)\,\vec{r}_2(t)] = \left[\lim_{t\to t_0}\vec{r}_1(t)\cdot\lim_{t\to t_0}\vec{r}_2(t)\right] = [\vec{a}_1\,\vec{a}_2]$$

4. $\vec{r} = \vec{r}(t)$ vektor funksiya uzluksiz bo`lishi uchun koordinatalar bo`yicha uzluksiz bo`lishi zarur va yetarlidir.

(**zaruriyligi**).

$|\Delta\vec{r}|^2 = \Delta x^2 + \Delta y^2 + \Delta z^2$, $\Delta t \to 0$ *da* $\Delta x \to 0$, $\Delta y \to 0$, $\Delta z \to 0 \Rightarrow |\Delta\vec{r}| \to 0$

(**yetarliligi).** $|\Delta\vec{r}| \to 0$ bo`lsin.

$|\Delta x| \le |\Delta\vec{r}|$, $|\Delta y| \le |\Delta\vec{r}|$, $|\Delta z| \le |\Delta\vec{r}| \Rightarrow \Delta x \to 0$, $\Delta y \to 0$, $\Delta z \to 0$

Ko`ramizki, vektor funksiyaning uzluksizligidan koordinatalar bo`yicha uzluksizligi kelib chiqadi.

5. $\vec{r}(t)$ vektor funksiyaning $t \in [t_1, t_2]$ kesmada tekis uzluksizligini isbotlansin.

Isboti. $\vec{r}(t)$ vektor funksiya $[t_1, t_2]$ kesmaning har bir nuqtasida uzluksiz bo`lsin. U holda $\vec{r}(t)$ ning koordinatalari ham uzluksiz va $|\Delta t| < \varepsilon$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi cheksiz kichik $\varepsilon$ sonni aniqlash mumkin bo`lib, $|\Delta x| < \frac{\delta}{\sqrt{3}}$, $|\Delta y| < \frac{\delta}{\sqrt{3}}$, $|\Delta z| < \frac{\delta}{\sqrt{3}}$;

u holda $|\Delta\vec{r}|^2 = \Delta x^2 + \Delta y^2 + \Delta z^2 < \delta^2 \Rightarrow |\Delta\vec{r}| < \delta$ ya`ni $|\Delta t| < \varepsilon$ va $\forall t \in [t_1, t_2] \Rightarrow |\Delta\vec{r}| < \delta$

6. $\vec{r}_1(t)$ va $\vec{r}_2(t)$ vektor funksiya hosilalari mavjud bo`lsa, $[\vec{r}_1(t)\,\vec{r}_2(t)]$ ning hosilasi hisoblansin.

Yechish.

$$[\vec{r}_1(t)\,\vec{r}_2(t)]'_t = \lim_{\Delta t\to 0}\frac{\Delta[\vec{r}_1\,\vec{r}_2]}{\Delta t} = \lim_{\Delta t\to 0}\frac{[(\vec{r}_1 + \Delta\vec{r}_1)(\vec{r}_2 + \Delta\vec{r}_2)] - [\vec{r}_1\,\vec{r}_2]}{\Delta t} = \lim_{\Delta t\to 0}\left[\frac{\Delta\vec{r}_1}{\Delta t}(\vec{r}_2 + \Delta\vec{r}_2)\right] + \lim_{\Delta t\to 0}\left[\vec{r}_1\,\frac{\Delta\vec{r}_2}{\Delta t}\right] =$$
$$[\vec{r}_1'(t)\,\vec{r}_2] + [\vec{r}_1\,\vec{r}_2'(t)]$$

7. $\vec{r}(t) = \vec{a}t + \vec{b}$ chiziqli vektor funksiya hosilasi topilsin.

$$\Delta\vec{r}(t) = [\vec{a}(t + \Delta t) + \vec{b}] - (\vec{a}t + \vec{b}) = \vec{a}\Delta t \Rightarrow \frac{\Delta\vec{r}(t)}{\Delta t} = \vec{a} \Rightarrow \vec{r}'(t) = \lim_{\Delta t\to 0}\frac{\Delta\vec{r}}{\Delta t} = \lim_{\Delta t\to 0}\vec{a} = \vec{a}$$

Mustaqil yechish uchun masala va mashqlar

1. $\lim\limits_{t\to t_0}\vec{r}_i(t) = \vec{a}_i$, $(i = 1,2,3,...)$ va $\lim\limits_{t\to t_0}\lambda(t) = \lambda_0$ bo`lsa, quyidagi formulalar isbotlansin:

a) $\lim\limits_{t\to t_0}(\vec{r}_1(t) + \vec{r}_2(t) + \vec{r}_3(t)) = \vec{a}_1 + \vec{a}_2 + \vec{a}_3$;

b) $\lim\limits_{t\to t_0}\left(\lambda(t)\,\vec r_i(t)\right)=\lambda_0\vec a_i$

c) $\lim\limits_{t\to t_0}\left(\vec r_1(t)\ \vec r_2(t)\right)=\left(\vec a_1\,\vec a_2\right);$

d) $\lim\limits_{t\to t_0}\left(\vec r_1\,\vec r_2\,\vec r_3\right)=\left(\vec a_1\,\vec a_2\,\vec a_3\right);$

2. $\vec r_i(t)$ va $f(t)$ funksiyalar $M_0(t_0)$ nuqtada uzluksiz bo`lsa:

a) $\vec r_1\ (t)\pm\vec r_2(t),$ b) $\left(f(t)\vec r_i(t)\right)$ c) $\left(\vec r_1(t)\vec r_2(t)\right),$ d) $\left[\vec r_1(t)\vec r_2(t)\right]$ e) $\left(\vec r_1(t)\vec r_2(t)\vec r_3(t)\right)$ funksiyalarning shu nuqtada uzluksizligini isbotlansin.

3. $\vec r=\vec r(t)$ vektor-funksiya uzluksiz bo`lsa, $|\vec r|=|\vec r(t)|$ funksiya uzluksiz bo`ladimi? Teskarisi har vaqt bajarilmasligini ko`rsating.

4. $\vec r_i(t),\ (i=1,2,3)$ va f(t) funksoyalar differensiallanuvchi bo`lsa, u holda quyidagi qoidalar isbotlansin.

a) $\left(\vec r_1(t)\pm\vec r_2(t)\right)'_t=\vec r_1'(t)\pm\vec r_2'(t),$

b) $\left(f(t)\vec r_i(t)\right)'_t=f_t'(t)\vec r_i(t)+f(t)\vec r_i'(t),$

c) $\left(\vec r_1(t)\ \vec r_2(t)\right)'_t=\vec r_t'(t)\vec r_2(t)+\vec r_1(t)\vec r_2'(t),$

d) $\left(\vec r_1(t)\vec r_2(t)\vec r_3(t)\right)'_t=\left(\vec r_1'(t)\vec r_2(t)\vec r_3(t)\right)+\left(\vec r_1(t)\vec r_2'(t)\vec r_3(t)\right)+\left(\vec r_1(t)\vec r_2(t)\vec r_3'(t)\right),$

5. Vektor-funksiya differnsiallanuvchi bo`lsa, u holda ushbu vektor-funksiyaning uzluksizligini isbotlang.

6. Koordinatalari differensiallanuvchi bo`lgan vektor-funksiyaning differensiallanuvchi bo`lishini isbotlang.

7. Quyidagi vektorlarning hosilalarini toping.

1) $\vec r^{\,2}(t),$ 2) $\vec r_t'^{\,2}(t),$ 3) $\left[\vec r_t'(t)\,\vec r_{t^2}''(t)\right],$ 4) $\left(\vec r_t'(t)\,\vec r_{t^2}''(t)\,\vec r_{t^3}'''(t)\right),$ 5) $\sqrt{\vec r^{\,2}(t)}$

8. $|\vec r'(t)|=|\vec r(t)|'_t$

9. $\vec r_u'=\vec r_v'=0$ bo`lsa, $\vec r=\vec r(u,v)$ vektor-funksiyaning o`zgarmas vektor bo`lishini ko`rsating.

10. $\vec r(t)=const$ vektor-funksiya uchun $\vec r(t)$ va $\vec r'(t)$ vektorlarning orthogonal bo`lish shartini aniqlang.

11. $\vec r(t)$ vektor-funksiya yo`nalishining doimiy (o`zgarmas) lik shartini aniqlang.

12. $\vec r(t)$ vektor-funksiya moduli (uzunligi)ning o`zgarmaslik shartini aniqlang.

13. $\vec r=\vec r_0+t\,\vec r_1+t^2\vec r_2$ vektor-funksiya orqali berilgan chiziqning godografi (grafigi) parabola bo`lishini ko`rsating, bunda $\vec r_0(t),\vec r_1(t),\vec r_2(t)$ o`zgarmas vektorlar. Boshqacha bo`lishi mumkinmi?

14. $\vec{r}=\vec{r}_0+\cos t\cdot\vec{r}_1+\sin t\cdot\vec{r}_2$ vektor-funksiya orqali berilgan chiziq godografi ellips bo`lishini isbotlang, bunda $\vec{r}_0, \vec{r}_1, \vec{r}_2$ o`zgarmas vektorlar. Boshqacha bo`lishi mumkinmi?

15. $\vec{r}=\vec{r}_0+ch(t)\cdot\vec{r}_1+sh(t)\cdot\vec{r}_2$ vektor-funksiya orqali berilgan chiziq godografi giperbola bo`lishini isbotlang, bunda $\vec{r}_0, \vec{r}_1, \vec{r}_2$ o`zgarmas vektorlar. Boshqacha bo`lishi mumkinmi?

16. $\vec{r}=\vec{r}_0+x\cdot\vec{r}_1+f(x)\cdot\vec{r}_2$ vektor-funksiya godografini aniqlang.

17. Tekislikning vektor ko`rinishdagi parametrik tenglamalarini yozing.

18. $\vec{r}_0, \vec{r}_1, \vec{r}_2, \vec{r}_3$ vektorlar o`zgarmas bo`lib, ulardan $\vec{r}_1, \vec{r}_2, \vec{r}_3$ komplanar bo`lmasin. Quyidagi formulalar orqali berilgan sirtlarning nomini ayting va shaklini tasvirlang.

a) $\vec{r}=\vec{r}_0+u\vec{r}_1+u^2\vec{r}_2+v\vec{r}_3$; Javob: parabolik silindr;

b) $\vec{r}=\vec{r}_0+\cos u\vec{r}_1+\sin u\vec{r}_2+v\vec{r}_3$; Javob: elliptik silindr;

c) $\vec{r}=\vec{r}_0+\left(u+\frac{1}{u}\right)\vec{r}_1+\left(u-\frac{1}{u}\right)\vec{r}_2+v\vec{r}_3$; Javob: giperbolik silindr;

d) $\vec{r}=\vec{r}_0+u\cos v\vec{r}_1+u\sin v\vec{r}_2+u^2\vec{r}_3$; Javob: elliptik paraboloid.

19. Umumlashgan doiraviy funksiyalarni $\vec{E}(\varphi)=\vec{a}\cos\varphi+\vec{b}\sin\varphi$, $\vec{G}(\varphi)=-\vec{a}\sin\varphi+\vec{b}\cos\varphi$, tengliklar orqali berish mumkin. $\frac{d\vec{E}(\varphi)}{d\varphi}=\vec{G}(\varphi)$ va $\frac{d\vec{G}(\varphi)}{d\varphi}=-\vec{E}(\varphi)$ - isbotlansin.

20. $\vec{e}(\varphi+\alpha)=\vec{e}(\varphi)\cos\alpha+\vec{g}(\varphi)\sin\alpha$ ayniyatni isbotlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wilhelm Klingenberg, A Course in differential geometry,1978 by Springer-Verlag, New York Inc. Printed in the United States of America.
2. M.A.Arstrong, Basic Tpology, Springer, 1998 y.
3.Сборник задач по дифференциал`ной геометрии. Под ред. Феденко А.С. М., 1979

12-13. Regulyar chiziq. Chiziq tenglamalari.

Reja:

1. Ta’riflar
2. Chiziq tenglamasi
3. Misollar

Tayanch tushuncha va iboralar:

Uzluksiz almashtirish, topologik almashtirish, elementar yoy, elementar chiziq, chiziqning chegaraviy nuqtalari, sodda chiziq, umumiy chiziq, regulyar va silliq chiziq.

Tekislikda dekart reper $B=\{0,\vec{i},\vec{j}\}$ o`rnatilgan bo`lsin. M(x,y) nuqtalarning L to`plamiga tegishli istalgan nuqtalarning B reperdagi (x,y) koordinatalarini $x=\varphi(t),\ y=\psi(t),\ \alpha\le t\le\beta$ (1) ko`rinishda ifodalash mumkin bo`lib, $\varphi(t),\ \psi(t)$ funksiyalar I=$[\alpha,\beta]$ kesmada uzliksiz bo`lsa va t parametrning $[\alpha,\beta]$ kesmadagi turli qiymatlarida L to`plamning turli nuqtalari mos qo`yilsa, u holda L nuqtalar to`plamiga **tekis elementar egri chiziq** deb ataladi. (1) ifodalarni **elementar chiziqning parametrik tenglamalari** deyiladi. t-parametr fizik miqdor – vaqt bo`lishi ham mumkin.

Tekis elementar chiziqni y=f(x) yoki x=t , y=f(t), (2) ko`rinishda ham ifodalash mumkin. $t\in$ I bo`lsin. I- ni $[t_{i-1},t_i]$, $\alpha=t_0<t_1<...<t_n\to\beta$ segmentlarga ajrataylik

Ta`rif.** I bog`lanishli to`plamning har bir $[t_{i-1},t_i]$ segmentida (1) ko`rinishda ifodalangan nuqtalar to`plami elementar egri chiziq tashkil etsa, u holda L to`plam barcha egri chiziqlarning birlashmasidan iborat bo`lib, uni **soda chiziq deb ataladi.

Soda egri chiziq uchun o`z-o`zini kesish nuqtalari, ustma-ust qo`yilgan (yopishgan) tarmoqlari mavjud bo`lmaydi. Soda egri chiziqni $\vec{r}=\vec{r}(t)$ (3) ko`rinishda ifodalash ham mumkin, bunda $\vec{r}(t)$ vektor-funksiyalar I sohada uzluksiz bo`lib, uzluksiz funksiyalarning C^k sinfiga tegishlidir.

Ta`rif.** Agar $\vec{r}(t)$ vektor-funksiyalar I sohaning ixtiyoriy $t_0$ nuqtasida aniqlangan va uzluksiz bo`lib, shu nuqtada $\vec{r}_t'\neq 0$ bo`lsa, u holda L egri chiziqni **regulyar chiziq (k=1 uchun silliq) deyiladi.

Elementar va sodda fazoviy egri chiziq tushunchasi, ta`rifi va tenglamalarini tekis egri chiziq tushunchasiga o`xshash tarzida yoritish mumkin.

Fazoviy egri chiziq L ga tegishli istalgan M nuqtaning (x,y,z) koordinatalarini

$$x=\varphi(t),\ \ y=\psi(t),\ \ z=\lambda(t),\ \ \alpha\le t\le\beta \qquad (4)$$

ko`rinishda ifodalash mumkin bo`lib, $\varphi(t),\ \psi(t),\ \lambda(t)$ funksiyalar $[\alpha,\beta]$ uzluksiz va t-ning $[\alpha,\beta]$ dagi turli qiymatlariga L to`plamning turli nuqtalari mos kelsa, u holda L-ni **elementar fazoviy egri chiziq** deyiladi. (4) L-ning parametrik tenglamalaridir.

Fazoviy soda egri chiziq tushunchasini va ta`rifini soda egri chiziqdagi kabi kiritish mumkin.

Sodda fazoviy egri chiziqni Φ_1 va Φ_2 sirtlarning kesishish chizig`i sifatida olish ham mumkin. Ushbu egri chiziq ixtiyoriy M(x,y,z) nuqtasining koordinatalari

$$\text{L: } \begin{cases} F_1(x,y,z)=0 \\ F_2(x,y,z)=0 \end{cases} \qquad (5)$$

sistemani qanoatlantiradi. (5) sistema fazoviy egri chiziqni aniqlashi uchun

$$M=\begin{Vmatrix} F'_{1x} & F'_{1y} & F'_{1z} \\ F'_{2x} & F'_{2y} & F'_{2z} \end{Vmatrix} \qquad (6)$$

matritsaning rangini 2 ga teng bo`lishi talab qilinadi.

Masala yechish namu`nalari

1-masala. Bernulli lemniskatasining dekart va qutb koordinatalr bo`yicha tenglamasi tuzilsin.



3 - chizma

Yechish. Bernulli lemniskatasi kassini ovalining xususiy holi bo`lib, oval tenglamasidan kelib chiqadi.

Kassining ovali. Har biridan F_1 va F_2 nuqtalargacha bo`lgan masofalar ko`paytmasi o`zgarmas son $b^2$ ga teng bo`lgan tekislikdagi nuqtalar to`plamiga kassining ovali deyiladi.

Bu chiziq tenglamasini aniqlash uchun (F_1F_2) to`g`ri chiziqni OX o`q deb qabul qilamiz. $F_1F_2$ kesma o`rtasidan F_1F_2 ga perpendikulyar qilib, OY o`q o`tkazamiz. OXY dekart sistemada F_1 va F_2 nuqtalar koordinatalarini aniqlash uchun F_1F_2 kesma uzunligini 2c ga teng bo`lsin deb faraz qilamiz. U holda $F_1(-c,0)$, $F_2(c,0)$. Ovalning ixtiyoriy M nuqtasi M(x,y) koordinatalarga ega bo`lib,



4 - chizma

$d(F_1,M)\cdot d(F_2,M)=b^2$ (1)

$$\sqrt{(x+c)^2+y^2}\cdot\sqrt{(x-c)^2+y^2}=b^2$$

$$\left(x^2+y^2\right)^2-2c^2\left(x^2-y^2\right)=b^4-c^2 \qquad (2)$$



b=c bo`lganda oval **Bernulli lenistikasi** deyiladi. Uning tenglamasi

$$\left(x^2+y^2\right)^2-2c^2\left(x^2-y^2\right)=0 \qquad (3)$$

$$x=\rho\cos\varphi,\ \ y=\rho\sin\varphi. \qquad (4)$$

formulalar yordamida dekart koordinataladan qutb koordinatalarga o`tsak, (b>c)

$\rho^2=2c^2\cos 2\varphi$ (5) tenglama kelib chiqadi.

2-masala. **Stroida** tenglamasi tuzilsin.



5 - chizma

A(-a,0) nuqtadan o`tgan ixtiyoriy nur OY o`qini B nuqtada kesadi. AB to`g`ri chiziqdagi B nuqtaning ikkala tomoniga BM=BM´=BO kesmalarni qo`yamiz. AB nurni A nuqta atrofida aylantiramiz , bu vaqtda BO masofa shu bilan birga BM=BM´ kesmalar ham o`zgarib boradi. (5chizma).



6 - chizma

O`zgarib turadigan M va M´ nuqtalarning geometrik o`rniga **strofoida** deyiladi.

Strofoida tenglamasini chiqaraylik, M nuqtaning koordinatalari x va y bo`lsin. BM=BM´ bo`lgani uchun $|EO| = |OF| = x$ bo`ladi, bunda E va F M´E⊥ox , MF⊥ ox bo`ladi, perpendikulyarning asosi M´OE va OMF uchburchaklar o`xshash $\Rightarrow \frac{EO}{M'E} = \frac{FM}{OF}$

$\frac{x}{M'E} = \frac{y}{x} \Rightarrow M'E = \frac{x^2}{y}$, Δ M´AE , Δ MAF bo`lgani uchun

$$\frac{AE}{AF} = \frac{M'E}{M\,F} \Rightarrow \frac{a-x}{a+x} = \frac{\frac{x^2}{y}}{y} \Rightarrow y^2 = x^2\,\frac{a+x}{a-x}$$

3-masala. To`rt yaproqli gulning qutb koordinatalar bo`yicha tenglamasi tuzilsin.

Uzunligi 2a ga teng AB kesmaning uchlari OX va OY o`qlari bo`ylab sirpansin. Koordinatalar boshi bo`lgan O nuqtadan AB kesmaga perpendikulyar tushuramiz.



7 - chizma

Ta`rif.** Koordinatalar boshidan AB kesmaga tushurilgan perpendikulyar asoslarining geometrik o`rniga **to`rt yaproqli gul deyiladi.

$OM = \rho, \quad \angle MOB = \theta$ belgilaylik, Δ MOA dan

$\frac{MA}{OM} = ctg\theta = MA = \rho\, ctg\theta$ Δ OMB dan

$MB = \rho\, tg\theta$ shartga ko`ra MA+MB=AB=2a, demak $\rho\, ctg\,\theta + \rho\, tg\,\theta = 2a \Rightarrow \rho = a\sin 2\theta \quad \theta' = \theta + 45^0$ desak, $\rho = a\cos 2\theta'$

4. Vint chiziq.

Fazoda OXYZ dekart koordinatalar sistemasi o`rnatilgan bo`lsin. O`zgarmas *a* uzunlikdagi AB kesma OZ o`qqa perpendikulyar bo`lib, uning A uchi shu o`qda yotsin.

**Ta`rif.** (OZ) o`qqa perpendikulyar kesmaning A uchi OZ o`q bo`ylab siljib o`q atrofida shunday aylansaki,



8 - chizma

kesmaning OZ o`qdagi uchi aylanish burchagi $\varphi$ ga proporsional yo`lni bosib o`tsin.kesmaning ikkinchi B uchining iziga **vint chiziq** deyiladi.

Masala. Vint chiziqning parametrik tenglamasi tuzilsin.

AB = a, OA = $\lambda\varphi$ $\overrightarrow{OB} = \overrightarrow{OP} + \overrightarrow{PB} = \overrightarrow{OP} + \overrightarrow{OA}$,

$\overrightarrow{OB} = \vec{r} = a(\vec{i}\cos\varphi + \vec{j}\sin\varphi) + \lambda\varphi\vec{k}$

Xulosa. $\vec{r} = a\cos\varphi\vec{i} + a\sin\varphi\vec{j} + \lambda\varphi\vec{k}$ vint chiziqning vektorli parametrik tenglamasi bo`lib, $x = a\cos\varphi$, $y = a\sin\varphi$, $z = \lambda\varphi$ esa uning koordinata ko`rinishdagi tenglamasidir. Vint chiziq $x^2 + y^2 = a^2$ doiraviy silindrning yon bag`ir chizig`idir.

5. Sikloida.

a radiusli aylana biror to`g`ri chiziq bo`ylab, sirpanmay g`ildirasin. Harakatdagi aylanada ko`rsatilgan nuqtaning iziga **sikloida** deyiladi.

Masala. Sikloidaning parametrik tenglamasi tuzilsin.

Yechish. Masala shartidagi to`g`ri chiziq OX o`q bo`lsin. M nuqta boshlang`ich momentda O vaziyatda bo`lsin. Chizmada t momentdagi vaziyat ko`rsatilgan. Qo`zg`aluvchan aylananing yangi vaziyatdagi markazi C bo`lsin.

$CM = CE = OC_o = a$,

$\angle MCE = t$ belgilaylik, t=0 da $M \equiv 0$, $t = 2\pi$ da $M = O_1$, $d(o, o_1) = 2\pi a$. M nuqtaning OX dagi proyeksiyasi S bo`lsin.

ES=CN,



9 - chizma

$x = OS = OE\text{-}SE = at - a\sin t = a(t - \sin t)$

$y = SM = EC + NM = a - a\cos t = a(1 - \cos t)$ $\vec{r} = \overrightarrow{OM} = a\{(t - \sin t) + (1 - \cos t)\}$

6. Fazoda OXYZ dekart koordinatalar sistemasi o`rnatilgan bo`lsin. OZ o`qqa perpendikulyar bo`lmagan OL to`g`ri chiziq OZ atrofida doimiy burchak koeffisenti ω ostida tekis aylansin. M nuqta OL bo`ylab siljisin.

a) Harakatdagi M nuqtaning 0 ga nisbatan masofasi OM ga proporsional ravishda;

b) o`zgarmas tezlik ostida o`zgarsin.

a) xolda M nuqta konus spiralini chizsa; b) xolda konus vint chizig`ini chizadi. Ushbu chiziqlarning parametrik tenglamari tuzilsin.



10-chizma

Yechish. a) Qutb koordinatalar sistemasini o`rnatamiz. M nuqtaning vaziyatini r=d(O,M) masofa, $\psi = POL$-geografik kenglik va geografik uzodlik bo`yicha aniqlanadi. Masala shartiga ko`ra $\psi = \frac{\pi}{2} - \lambda$, bunda $\lambda = Z\overset{\Delta}{O}L$ va $\varphi = \omega t$ $\frac{dr}{dt} = mr$ shartdan r- ni aniqlaymiz. $r = r_0 e^{mt}$ va uni quyidagi formulaga qo`yamiz. $x = r\cos\psi\cos\varphi,\quad y = r\cos\varphi\sin\varphi,\quad z = r\sin\psi$

<u>Xulosa</u>. $x = ae^{k\varphi}\cos\varphi,\ \ y = a e^{k\varphi}\sin\varphi,\ \ z = b e^{k\varphi}$ bunda $k = \frac{m}{\omega},\quad a = r_0\sin\lambda,\ b = r_0\cos\lambda$

b) $x = at\cos t,\quad y = at\sin t,\quad z = bt \ \Rightarrow\ \frac{(x^2+y^2)}{a^2} - \frac{z^2}{b^2} = 0$

7. $x = t$, $y = t^2$, $z = e^t$ fazoviy chiziq qaysi sirtlarning kesishish chizigi bo`lishi mumkin? Javob: $y = x^2$, $z = e^x$ sirtlarning kesishmasi.

8. Chiziq $\begin{cases} x^2 + y^2 + z^2 - R^2 = 0 \\ x + y + z = 0 \end{cases}$ tenglamalar orqali berilgan bo`lsin. Yakobi matritsasi $\begin{pmatrix} 2x & 2y & 2z \\ 1 & 1 & 1 \end{pmatrix}$ ning rangi r = 2. Tenglamalardan birinchisi O(0,0,0) markazli R radiusli sfera, 2- esa O nuqtadan o`tuvchi tekislik. Kesimni aniqlang.

9. Bir aylana 2- aylana bo`ylab tashqaridan sirpanmay g`ildirasa, harakatdagi aylanada ko`rsatilgan nuqtaning chizgan iziga **episikloida** deyiladi.

<u>Yechish</u>. $\omega(0,a)$ berilgan aylana, ω′ harakatlanuvchi aylana bo`lsin.OXY dekart koordinatalar sistemasini o`rnataylik. Boshlang`ich momentda ω′ va ω aylanaga $A \in (OX)$ nuqtagada urinsin. t-momentda M vaziyatga ko`tariladi va izlangan chiziqda yotadi. ω aylanada $AB = \angle AOB \cdot OA = a\angle AOB$ (1) ω'' aylanada $BM = BC,\ \angle BCM = mat$ (2) bunda $\angle BCM = t,\ \ MC = CB = ma,\ ma < a,\ m > 0$, ko`ramizki $BM = AB$ (3) $\Rightarrow\ a\angle AOB = mat\ \Rightarrow\ \angle AOB = mt$ (4) M nuqtaning koordinatalarini topamiz. $X = OE = OF + FE$ (5)

$\angle COF : OF = (a + ma)\cos(\angle COF) = a(1+m)\cos mt$ (6)

$FE = KM.\ \triangleright KCM : KM = CM\cdot\sin(\angle KCM) \Rightarrow$

$\angle KCM = \angle BCM - \angle OCF = t - (\frac{\pi}{2} - mt) = t(1+m) - \frac{\pi}{2}$

$FE = KM = ma\sin(t(1+m) - \frac{\pi}{2})$ (7) . (6) va (7) ni (5) ga qo`yamiz.



11-chizma

$x = a[(1+m)\cos mt - m\cos(1+m)t]$ $y = ME = CF - CK$ (8)

$\triangle COF \Rightarrow CF = a(1+m)\sin mt$ (9) $\triangle KCM \Rightarrow CK =$

$= ma\sin(1+m)t$ (10)

(9) va (10) ni (8) ga qo`yamiz. $y = a[(1+m)\sin mt - m\sin(1+m)t]$

Javob: $x = a[(1+m)\cos mt - m\cos(1+m)t]$,

$y = a[(1+m)\sin mt - m\sin(1+m)t]$

10. $OD = a$ diametrli aylanani $[OB)$ nur orqali kesaylik. (OXY) dekart koordinatalar sistemasini shunday o`rnataylikki, $D \in (OX)$ bo`lsin. D nuqtadan OX ga perpendikulyar d to`g`ri chiziq B nuqtada kesishsin. $[OB)$ nur ω aylana bilan A nuqtada kesishsin.

Ta`rif:** $OM = AB$ tenglikni qanoatlantiruvchi $M$ nuqtalar to`plamiga **Dmokles sissoidasi deyiladi. Ushbu chiziqning parametrik tenglamalari tuzilsin.



12-chizma

Yechish : $OM = AB$, $OD = a$, $\angle BOD = \varphi$ $\triangle OAD$

dan $tg\varphi = \dfrac{AD}{OA} \Rightarrow AD = OAtg\varphi.$ ΔOAD va ΔABD larning

o`xshashligidan $AD = OA \cdot AB$ (2) ΔOAD dan

$OA = OD\cos\varphi = a\cos\varphi$ (3)

$(1),(2),(3) \Rightarrow AB = a\cos\varphi tg^2 = a\dfrac{\sin^2\varphi}{\cos\varphi}$ $OM = r$ belgilasak,

$r = a\dfrac{\sin^2\varphi}{\cos\varphi}$ (4) $x = r\cos\varphi = a\sin^2\varphi$, $y = r\sin\varphi = \dfrac{a\sin^3\varphi}{\cos\varphi}$ $\sin^2\varphi = \dfrac{tg^2\varphi}{1+tg^2\varphi}$. U

holda, $x = a\dfrac{tg^2\varphi}{1+tg^2\varphi}$, $y = a\dfrac{tg^3\varphi}{1+tg^2\varphi}$ (5) $tg\varphi = \varphi$ deb belgilasak,

$x = \dfrac{a\varphi^2}{1+\varphi^2}$, $y = \dfrac{a\varphi^3}{1+\varphi^2}$.

Mustaqil yechish uchun misollar.

1. Bir aylana ikkinchi aylana bo`ylab ichkaridan sirpanmay g`ildirasa, harakatdagi aylanada ko`rsatilgan nuqtaning chizgan iziga giposikloida deyiladi. Ushbu chiziqning parametrik tenglamalari tuzilsin.

Javob: $x = a[(1-m)\cos mt + m\cos(1-m)t]$,

$y = a[(1-m)\sin mt - m\sin(1-m)t]$

$m = \dfrac{1}{4}$ bo`lganda astroida nomlanuvchi chiziq kelib chiqadi.Uning tenglamasi

$x = a(\frac{3}{4}\cos\frac{1}{4}t + \frac{1}{4}\cos\frac{3}{4}t)$, $y = a(\frac{3}{4}\sin\frac{1}{4}t - \frac{1}{4}\sin\frac{3}{4}t)$



13-chizma

2. Astroidaning oshkormas tenglamasi tuzilsin.

Javob: $x = a\cos^3 t$, $y = a\sin^3 t$, $x^{\frac{2}{3}} + y^{\frac{2}{3}} = a^{\frac{2}{3}}$

3. Uzunligi $2a$ ga teng kesmaning uchlari OX va OY o`qlar bo`ylab $(A \in OY)$ sirpansin. $OACB$ to`g`ri to`rtburchakninig C uchidan AB ga

perpendikulyar qilib CM ni tushiraylik. CM perpendikulyar asoslarining geometrik o`rni bo`lgan chiziq (astroida) ning tenglamasi tuzilsin. Javob**:** $x = 2a\cos^3\varphi,\ y = 2a\sin^3\varphi$

<u>Ko`rsatma</u> : $\angle ABO = \varphi -$parametr.

4. M nuqta ON to`g`ri chiziq bo`yalab harakatlansin. $ON$ to`g`ri chiziq esa O nuqta atrofida aylansin.

**Ta`rif:** Qutb atrofida yekis aylanayotgan to`g`ri chiziq ilgarlanma tekis harakat qiluvchi nuqtaning chizgan iziga Arximed spirali deyiladi.

Arximed spiralining qutb kordinatalari bo`yicha tenglamasi tuzilsin. Javob: $r = a\varphi$



14 - chizma

5. a radiusli aylananing ko`rsatilgan nuqtasi orqali o`tuvchi nurni shu nuqta atrofida aylantiraylik. Nurni aylana bilan kesishish nuqtasi A dan ikki tomonga $2b$ uzunlikdagi AM_1 va AM_2 kesmalarni qo`yaylik. $M_1$ va $M_2$ nuqtaning geometrik o`rniga Paskal chanog`i deyiladi. $a = b$ uchun **Kardoida** nomli chiziq hosil bo`ladi. Ushbu chiziqning tenglamalari tuzilsin.

Javob: $r = 2a\cos\varphi \pm 2b \quad (x^2 + y^2 - 2ax)^2 = 4b^2(x^2 + y^2),\ a = b$ bo`lganda kardoida

6. Qanday chiziqning tenglamasi $x = t^2 - t + 1,\ y = t^2 + t - 1$ko`rinishida bo`ladi.

Javob: Parabola.

7.Radiusi $\frac{R}{2}$ ga teng aylananing qutb kordinatalar sistemasidagi tenglamasini tuzing. Javob: $\rho = R\cos\varphi$

**Ko`rsatma:** Diametrning bir uchini koordinatalar boshida tanlab, qutb koordinatalar sistemasini o`rnating.

8. $\rho = \frac{a}{\varphi}$ tenglama orqali aniqlangan chiziqqa giperbolik spiral deyiladi. $a -$ musbat son.

Giperbolik spiralni vaziyatini tekshiraylik. $\varphi_0 = \frac{\pi}{2}$ qiymatni olaylik $M_1(\frac{2a}{\pi}, \frac{\pi}{2})$ mos nuqta φ $-$cheksiz o`ssa, $\rho$ $\varphi$ ga teskari proporsional bo`lib, nolga intiladi. U holda o`zgaruvchi $M(\rho,\varphi)$ nuqta qutb atrofida musbat yo`nalishda harakatlanib qutbga cheksiz yaqinlashadi. Agar M_1 nuqta cheksizlikka intilsa , u holda φ $\frac{\pi}{2}$dan boshlab



15 - chizma

kichrayib boradi, ρ esa cheksizlikka intiladi. $M(\rho,\varphi)$ nuqta cheksiz uzoqlashadi. M nuqtaning qutb o`qiga proyeksiyasi $P$ bo`lsin .



16 - chizma

$$PM = \rho\sin\varphi, \quad PM = \rho\sin\varphi = a\frac{\sin\varphi}{\varphi}$$ ma`lumki,

$\frac{\sin\varphi}{\varphi}\xrightarrow[\varphi\to 0]{}1$ u holda $PM\xrightarrow[\varphi\to 0]{}a$ tenglamasi

$$-\rho^2\frac{d\varphi}{d\rho} = a \Rightarrow \frac{d\varphi}{a} = -\frac{d\rho}{\rho^2} \Rightarrow \frac{1}{\rho} = \frac{\varphi}{a}.$$

<u>Xulosa</u>. M nuqta spiral bo`ylab cheksizlika intilsa, ushbu nuqta qutb o`qiga parallel va undan a masofada o`tuvchi to`g`ri chiziqqa yaqinlashib boradi. $a$ - manfiy son bo`lsa, $\rho = \frac{a}{\varphi}$ tenglik teskari giperbolik spiralni aniqlaydi.

9. OL to`g`ri chiziq O qutb atrofida doimiy burchak tezligi ω ostida aylanadi. M nuqta OL tog`ri chiziqda $|OM|$ masofaga proporsional tezlik bilan xarakatlanadi. M nuqtaning iziga **logarifmik spiral** deyiladi

Masala. Logarifmik spiralning qutb koordinatalari bo`yicha tenglamasi yozilsin.

Parametr sifatida t vaqtni olib, uni chiziqning A nuqtasidan o`tgan momenti $(\varphi = 0, \rho = \rho_0)$dan boshlab hisoblaymiz. $\varphi = \omega t \Rightarrow \frac{ds}{dt} = m\rho$, $m = const$,

$\frac{d\rho}{\rho} = mdt \Rightarrow \rho = \rho_0 e^{mt}$ $t = \frac{\varphi}{\omega} \Rightarrow \rho = \rho_0 e^{m\frac{\varphi}{\omega}} = \rho_0 e^{\kappa\varphi}$, bunda $k = \frac{m}{\omega}$, $k = 0$ da $\rho = \rho_0$ -aylana hosil bo`ladi. $\varphi$ -o`ssa, ρ -o`sadi, φ -kamaysa, ρ -kamayadi.



17 - chizma

Logarifmik spiralning dekart koordinatalar sistemasidagi tenglamasi $x = \rho_0 e^{k\varphi}\cos\varphi, \quad y = \rho_0 e^{k\varphi}\sin\varphi.$

10. $\rho = f(\varphi)$ qutb tenglama bilan berilgan chiziqning dekart koordinatalar sistemasidagi tenglamasi yozilsin. Arximed spirali giperbolik spiralning dekart sistemadagi tenglamasi qanday?

Javob: $x = f(y)\cos\varphi$, $y = f'(\varphi)\sin\varphi$, $x = a\varphi\cos\varphi$, $y = a\varphi\sin\varphi$, $x = \frac{a}{\varphi}\cos\varphi$, $y = \frac{a}{\varphi}\sin\varphi$

11. $x^2 + y^2 + z^2 = R^2$ sfera va $x^2 + \left(y - \frac{R}{2}\right)^2 = \frac{R^2}{4}$ silindrning kesishish chizig`iga **Viviani chizig`i** deyiladi. Uning parametrik tenglamalarini yozing.



18 - chizma

Javob: $\angle XOP = U$ belgisak, $X = R\cos u \sin u$, $y = R\sin u$, $z = R\cos u$.

12. $x = t^2\cos t$, $y = t^2\sin t, z = t^2(0 < t < \infty)$ chiziq obrazinig doiraviy konusda yotishini ko`rsating va regurlyarligini isbotlang.

Javob: $x^2 + y^2 - z^2 = 0$

13. $x = 1 + \cos t$, $y = \sin t$, $z = 2\sin\frac{t}{2}$ $(-2\pi \le t \le 2\pi)$ chiziqning regulyarligini sferaga va $(x-1)^2 + y^2 = 1$ silindrik sirtga tegishliligini ko`rsating.

14. Dekart yaprog`i oshkormas tenglamasi $x^3 + y^3 - 3axy = 0$ orqali berilgan. Parametr t-ni, $\frac{y}{x} = t$ tenglik orqali kiriting va parametrik tenglamalarini aniqlang

Javob: $x = \frac{3at}{1+t^3}$, $y = \frac{3at^2}{1+t^3}$.

15. $x = t, y = t \ +1$, $z = (t-1)^3$ chiziqning regulyarligini isbotlang. Ushbu chiziqning XOY va XOZ koordinata tekisliklaridagi proyeksiyalarini aniqlang.

Javob: $y = x^2 + 1$, $z = 0$ va $z = (x-1)^3$, $y = 0$.

16. $x = \frac{t}{1+t^2+t^4}$, $y = \frac{t^2}{1+t^2+t^4}, z = \frac{t^3}{1+t^2+t^4}$ egri chiziqning regulyarligini isbotlang va $x^2 + \left(y - \frac{1}{2}\right)^2 + z^2 = \frac{1}{4}$ sferada yotishini ko`rsating.

17. $x = t^2\cos t$, $y = t^2\sin t$, $z = t^2\ (0 < t < \infty)$ egri chiziqning regulyarligini isbotlang va konus sirtida yotishini ko`rsating. φ_0 -burchakni toping.

18. $x = 1$, $y = t^2$, $z = t^3$ egri chiziqning koordinata tekisliklaridagi proyeksiyalari qanday tenglamaga ega. Javob: (OXY)da $y = x^2$,(OXZ)da $z = x^3$, (OYZ)da $z = y^{\frac{3}{2}}$.

19. Qutbiy tenglamalari orqali berilgan egri chiziqlar obrazlarini tasvirlang

a) $\rho = a\sin k\varphi$,

b) $\rho = a\cos k\varphi$ (a,k-musbat o`zgarmas sonlar).

$|\sin k\varphi| \le 1$, $|\cos k\varphi| \le 1$ ni e’tiborga olinsa gullarni a radiusli aylanaga ichki chizilganligini kelib chiqadi. $\sin k\varphi, \cos k\varphi$ davriy funksiyalar bo`lgani uchun gullar kongurent yaproqlardan iborat bo`lib, eng katta a radiusga nisbatan simmetrik vaziyatga ega bo`lishi kelib chiqadi. Quyidagi hollar bo`lishi mumkin: $\rho = \sin k\varphi$ yoki $\rho = a\cos k\varphi$ egri chiziqlar. a, k musbat o`zgarmas sonlar. $|\sin k\varphi| \le 1$ ,$|\cos k\varphi| \le 1$ bo`lgaligi uchun egri chiziq a radusli aylana ichida joylashadi, $\sin k\varphi$, $\cos k\varphi$ lar davriy funksiyalar bo`lganligi uchun gullar kongruent yaproqlardan iborat bo`lib, eng katta a radiusga nisbatan simmetrik joylashadi.

I. k ratsional son.

$$\left.\begin{array}{l} 6-1)\ toq\ \ bo`lsa, \\ 5-2)\ juft\ \ bo`lsa, \end{array}\right\} \text{u holda gul } \begin{cases} k\ \ ta \\ 2k\ ta \end{cases} \text{ yaproqdan iborat.}$$

II. $k-$**ratsional son**, yani $k=\dfrac{m}{n}$;

$$\left.\begin{array}{l} 1,4-\ \ 1)\ m\ va\ n\ sonlarning \\ \qquad ikkalasi\ \ ham \\ \qquad toq\ \ son\ \ bo`lsa, \\ \\ 2,3-\ \ 2)\ m\ va\ n\ sonlardan \\ \qquad biri\ \ juft\ \ bo`lsa, \end{array}\right\} \text{gul } \begin{cases} m\ \ ta \\ 2m\ ta \end{cases} \text{ yaproqdan iborat.}$$

III. k-irratsional bo`lsa, gul qisman bir –birini qoplovchi yaproqlarning cheksiz to`plamidan iborat.



19 - chizma

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wilhelm Klingenberg, A Course in differential geometry,1978 by Springer-Verlag, New York Inc. Printed in the United States of America.
2. M.A.Arstrong, Basic Tpology, Springer, 1998 y.
3.Сборник задач по дифференциал`ной геометрии. Под ред. Феденко А.С. М., 1979

14.Egri chiziqlarning maxsus nuqtalari.

Reja:

1. Maxsus nuqta va tiplari.
2. Misollar

Tayanch tushuncha va iboralar :

Uzluksiz almashtirish, topologik almashtirish, elementar yoy, elementar chiziq, chiziqning chegaraviy nuqtalari, sodda chiziq, umumiy chiziq, regulyar va silliq chiziq.

Egri chiziqning vektorli parametrik tenglamasi

$$\gamma : \vec{r} = \vec{r}(t), \quad t \in \mathrm{I} \qquad \textbf{(1)}$$

ko`rinishda bo`lsin . M(t_0) $\in \gamma$ nuqtada $\vec{r}_t(t_0) = 0$ bo`lsa M($t_0$) nuqtani **noregulyar nuqta** deb ataymiz. M($t_0$) nuqtada noldan farqli birinchi hosila vektor $\vec{r}^{\,(p)}(t_0)$ bo`lib, unga kolleniar bo`lmagan noldan farqli hosila vektor $\vec{r}^{\,(q)}(t_0)$ bo`lsin. Quyidagi hollar bo`lishi mumkin:

1) P-toq , q-juft; γ chiziq obrazi M(t_0) nuqta atrofida , regulyar nuqta atrofidagi kabi ko`rinishga egadir .

2) P-toq , q-toq; M(t_0) – chiziqning bukilish nuqtasi

3) P-juft , q- toq; M(t_0) – chiziqning 1- tur qaytish nuqtasi (20-chizma)

4) P-juft , q-juft; M(t_0) – chiziqning 2- tur qaytish nuqtasi (21-chizma)



20- chizma



21-chizma

$$F(x, y) = 0 \qquad \textbf{(2)}$$

tenglama orqali berilgan chiziqning $M_0(x_0,y_0)$ nuqtasining maxsus nuqta bo`lish shartlarini keltiraylik:

$$F(x_0, y_0) = 0, \quad F'_x(x_0, y_0) = 0, \quad F'_y(x_0, y_0) = 0 .$$

$F''_{x^2}, F''_{xy}, F''_{y^2}$ hosilalardan biri M_0 nuqtada noldan farqli bo`lsa, $M_0$- maxsus nuqtani **qo`shaloq** yoki **ikki karrali** deyiladi.

$F''_{y^2}(x_0, y_0) \neq 0$ bo`lsin. Egri chiziqning M_0 nuqtadagi urinmalarining burchak koeffisenti

$$F''_{y^2} \cdot k^2 + 2F''_{xy}k + F''_{xx} = 0 \ . \qquad \textbf{(3)}$$

tenglamadan aniqlanadi.

$F''^2_{xy} - F''_{xx} F''_{yy} > 0 \quad \Rightarrow M_0\left(x_0, y_0\right) \in \gamma$ tugun nuqta,

$F''_{xy} - F''_{xx} F''_{yy} < 0 \quad \Rightarrow M_0\left(x_0, y_0\right) \in \gamma$ - ajralgan nuqta,

$F''_{xy} - F''_{xx} F''_{yy} = 0 \quad \Rightarrow M_0\left(x_0, y_0\right) \in \gamma$ – o`z - o`ziga urinish nuqtasi, I- tur yoki II- tur qaytish nuqta bo`lishi mumkin.

$F(x_0, y_0) = F'_x(x_0, y_0) = F'_y(x_0, y_0) = F''_{xx}(x_0, y_0) = F''_{xy}(x_0, y_0) = F''_{y^2}(x_0, y_0) = 0$ uchinchi tartibli hususiy hosilalar orasida noldan farqlilari mavjud bo`lsa, u holda 3 karrali maxsus nuqtalarni aniqlash, tipini ko`rsatish, ushbu maxsus nuqta atrofida egri chiziq tuzulishini tekshirish mumkin.

Masala yechish namunalari

1. $\vec{r} = t^2 \vec{i} + t^3 \vec{j}$ chiziqning maxsus nuqtasini aniqlang va tipini ko`rsating.

Yechish: $r'_t(t) = 2t\vec{i} + 3t^2\vec{j}$, t=0 da $\vec{r}(0) = 0$, $r'_t(0) = 0$

$\vec{r}''_{t^2}(t) = 2\vec{i} + 6t\vec{j}$, $\quad \vec{r}''_{t^2}(0) = 2\vec{i} \neq 0, \quad \vec{r}'''_{t^3}(0) = 6\vec{j} \neq 0$

$\vec{r}''_{t^2}$ va $\vec{r}'''_{t^3}$ vektorlar t=0 nuqtada kollenear emas. O(0,0) – maxsus nuqta, bo`lib egri chiziqning 1-tur qaytish nuqtasidir.

Tenglamani koordinata ko`rinishida yozaylik:

$$\gamma : \begin{cases} x = t^2 \\ y = t^3 \end{cases} \quad \Rightarrow y^2 = x^3$$ yarim kubik parabola ;

x	4	1	0	1	4	9
y	-8	-1	0	1	8	27
t	-2	-1	0	1	2	3



22- chizma

2. $y^2 - x^2 - x^3 = 0$ chiziqning maxsus nuqtalarini aniqlang va tipini ko`rsating;

Yechish: $$\begin{cases} F(x,y) = y^2 - x^2 - x^3 = 0, \\ F'_x(x,y) = -2x - 3x^2 = 0, \\ F'_y(x,y) = 2y = 0, \qquad \Rightarrow y = 0, \end{cases}$$



23- chizma

$$x^2 + x^3 = 0 \Rightarrow x^2(x+1) = 0 \Rightarrow x = 0,\ x = -1,$$

$$2x + 3x^2 = 0 \Rightarrow x(2+3x) = 0 \Rightarrow x = 0,\ x = -\frac{2}{3},$$

$x = -1$ va $x = -\dfrac{2}{3}$ qiymatlar sistemasini qanoatlantirmaydi.

O (0,0) nuqta sistemani qanoatlantiradi. Demak, maxsus nuqta O(0,0)

$F''_{xx}(0{,}0) = -2$; $F''_{xy}(0{,}0) = 0$; $F''_{y^2}(0{,}0) = 2$; $D = a_{12}^2 - a_{11}a_{22} = 4 > 0$.

Xulosa: O(0,0) – o`z o`zini kesish nuqtasi ya`ni tugun nuqta.

Mustaqil yechish uchun masalalar

1.Quyidagi chiziqlarning mahsus nuqtalari va ularning tipini ko`rsating

1) $x^2 - y^2 - x^4 = 0.$ Javob: 0(0,0)- o`z –o`zini kesish nuqtasi.

2) $x^3 - x^2 - y^2 = 0.$ Javob: 0(0,0) ajralgan nuqta.

3) $x^2 - x^2y^2 + y^2 = 0$ Javob: 0 (0,0) ajralgan nuqta.

4) $x^5 + 5x^4 - 4y^2 = 0$ Javob: 0(0,0) - o`z-o`zini kesish.

5) $ax^2 + x^3 - y^2 = 0.$ Javob: 0(0,0) – maxsus nuqta,

a < 0 da ajralgan nuqta,

a=0 da 1-tur qaytish nuqtasi,

a >0 da tugun nuqta.

6) $x^3 + y^3 - 3xy = 0.$ Javob: 0(0,0)-tugun nuqta.

7) $x^2 + y^2 - x^4 - y^4 = 0.$ Javob: 0(0,0) ajralgan nuqta.

8) $x^2 - x^6 + y^4 = 0.$ Javob: 0(0,0) ajralgan nuqta.

9) $\left(x^2 + y^2\right)^2 - a^2\left(x^2 - y^2\right) = 0.$ Javob: 0(0,0) tugun nuqta.

10) $\left(y - x^2\right)^2 - x^5 = 0.$ Javob: 0(0,0) -2- tur qaytish nuqtasi.

11) $(a + x)y^2 - (a - x)x^2 = 0.$ Javob: 0(0,0) tugun nuqta.

12) $x^4 - 8xy^2 + y^4 = 0.$ Javob: 0(0,0) uch karrali mahsus nuqta.

2. Quyidagi ajoyib chiziqlarning mahsus nuqtalarini aniqlang va tipini ko`rsatining.

1) Diokles sissoidasi: $\left(x^2 + y^2\right)x - 2ay^2 = 0.$

Javob: 0(0,0) - I - tur qaytish nuqtasi.

2) Nikomey konxoidasi : $\left(x^2 + y^2\right)(y - a)^2 - l^2y^2 = 0.$

Javob: l < a da 0(0.0) - ajralgan nuqta.

3) Strofoida : $(2a - x)y^2 = x(x - a)^2.$ Javob: A(0,0)-tugun nuqta.

4) Kardoida: $\left(x^2 + y^2 - 2ax\right)^2 - 4a^2\left(x^2 + y^2\right) = 0.$ Javob: 0(0,0) – I – tur qaytish nuqtasi .

5) Astroida : $x = a\cos^3 t,\ y = a\sin^3 t.$ Javob : 4-ta maxsus nuqta 1-tur qaytish nuqtasi.

6) Traktrissa : $x = a \sin t,\ y = a\left(\cos t + \ln \operatorname{tg}\frac{\mathbf{t}}{\mathbf{2}}\right);$

Javob: A(a,0) – 1-tur qaytish nuqtasi.

7) Bernulli lemniskatasi: $\left(x^2 + y^2\right)^2 - 2a^2\left(x^2 - y^2\right) = 0;$

Javob: O(0,0)- o`z o`zini kesish nuqtasi.

8) Dekart yaprog`i: $x=\frac{3at}{1+t^3}$; $y=\frac{3at^2}{1+t^3}$;

Javob: O(0,0) o`z o`zini kesish nuqtasi.

9) Sikloida : $x=a(t-\sin t)$; $y=a(1-\cos t)$;

Javob: $(2k\pi,0)$, k=1,2, … maxsus nuqtalar. 1-tur qaytish nuqtalar.

10) x=acost, y=asint , z=bt vint chiziq OXY koordinata tekisligiga (OZ) o`q bilan $\theta$ burchak tashkil etuvchi (OYZ) tekislikka parallel to`g`ri chiziqlar orqali proyeksiyalanadi. Vint chiziq proyeksiyasi maxsus nuqtaga egami? Maxsus nuqta $\theta$ ning qaysi qiymatida mavjud bo`lishi mumkin. Tipi qanday?

3. Transendent egri chiziqlarning maxsus nuqtalarini izlang.

1) $y^2=1-e^{-x^2}$; Javob: O(0,0) – ikki karrali nuqta.

2) $y^2=1-e^{-x^3}$; Javob: O(0,0) – qaytish nuqtasi.

3) $y=\frac{x}{1+e^{\frac{1}{x}}}$; Javob: O(0,0) – tig`izlanish nuqtasi

4) $y=arctg\left(\frac{1}{\sin x}\right)$; Javob: $x=k\pi(k=0,\pm1,\pm2...)$ – birinchi tur qaytish nuqtasi.

5) $y^2=\sin\frac{\pi}{x}$; Javob: $x=0$ – ikkinchi tur qaytish nuqtasi.

6) $y^2=\sin x^2$; Javob: $x=0$ – ikki karrali nuqta.

7) $y^2=\sin^3 x$; Javob: $x=k\pi(k=0,\pm1,\pm2...)$ – qaytish nuqtasi.

8) $y=x\ln x$; Javob: O(0,0) – tugash nuqtasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wilhelm Klingenberg, A Course in differential geometry,1978 by Springer-Verlag, New York Inc. Printed in the United States of America.
2. M.A.Arstrong, Basic Tpology, Springer, 1998 y.
3.Сборник задач по дифференциал`ной геометрии. Под ред. Феденко А.С. М., 1979

15. Asimptotalar

Reja:

1. Asimptota ta’rifi
2. Algebraik chiziq asimptotalari
3. Misollar

Tayanch tushuncha va iboralar: Urinma, nuqtadagi urinma, normal tekislik.

Tekis egri chiziq quyidagi parametrik tenglamalari orqali berilgan bo`lsin:

$$\gamma : x = x(t), y = y(t). \qquad (1)$$



24- chizma

**Ta`rif.** Birorta $\ell$ to`g`ri chiziq mavjud bo`lib , γ chiziq ustidagi M(t) nuqta chiziq bo`ylab cheksiz uzoqlashganda, ushbu nuqtadan $\ell$ to`g`ri chiziqqacha masofa nolga intilsa , u holda $\ell$ to`g`ri chiziqni berilgan γ chiziqning asimptotasi deb ataladi.

$$Ax + By + C = 0 \ , \quad (2)$$

to`g`ri chiziqni (1) chiziqqa asimptota bo`lish sharti:

$$\lim_{t\to T}|Ax(t) + By(t) + C| = 0. \quad (3)$$

Asimptota $y = kx + b$, (4)

ko`rinishdagi tenglamaga ega bo`lsa , koeffitsientlarni quyidagicha topiladi :

$$k = \lim_{t\to T}\frac{y(t)}{x(t)}, \quad b = \lim_{t\to T}[y(t) - kx(t)]. \quad (5)$$

(1) egri chiziq vertikal asimptotaga ega bo`lsa , uning tenglamasi

$$a = \lim_{t\to T} x(t) \ , \quad \lim_{t\to T} y(t) = \infty . \qquad (6)$$

Gorizontal asimptota uchun $\lim_{t\to T} x(t) = \infty, \ b = \lim_{t\to T} y(t).$ (7)

Tekis chiziq $y = f(x),$ (8)

tgenglama orqali berilgan bo`lsa, asimptota uchun $k = \lim_{x\to\infty}\frac{f(x)}{x}, \ b = \lim_{x\to\infty}[f(x) - kx]$

(9)

koeffisientlarni hisoblaymiz.

Algebraik ko`rinishda berilgan tekis chiziq asimptotalarining koeffisiantlarini eng yuqori darajali o`zgaruvchilar koeffisentlarini nolga tenglashtirib tenglamalarni yechish orqali topiladi.

$$A_n(k) = 0, \quad A_{n-1}(b, k) = 0. \qquad (10)$$

Masala yechish namunalari

1 $y = \frac{5}{x^2 - 16}$ egri chiziq asimptotalarini aniqlang.

Yechish: 1) $x = \pm 4$ ga $y = \infty$. ikkita asimptota mavjud bo`lib, tenglamalari $x - 4 = 0$ va $x + 4 = 0$.

2) $x \to \pm\infty$ ga $y \to 0 \Rightarrow$ absissa o`qi $y = 0$ berilgan chiziq asimptotalaridan biridir.

Javob: $x - 4 = 0, \ x + 4 = 0, \ y = 0$.

2. $x=\frac{2t-1}{t^2-1}$, $y=\frac{t^2}{t-1}$ parametrik qurishda berilgan yassi egri chiziq asimptotalarini aniqlang.

Yechish: $t=-1$ da $x=-\infty, y=-\frac{1}{2}\Rightarrow$ asimptota tenglamasi $y+\frac{1}{2}=0,$

$t=1$ da $x=\infty,\ y=\infty\Rightarrow$ ko`ramizki koordinata o`qlariga parallel bo`lmagan asimptota mavjud bo`lib, uni $y=kx+b$ tenglama ko`rinishida izlaymiz.

$$k=\lim_{t\to1}\frac{y(t)}{x(t)}=\lim_{t\to1}\left(\frac{t^2}{t-1}:\frac{2t-1}{t^2-1}\right)=\lim_{t\to1}\frac{t^2(t+1)}{2t-1}=2$$

$$b=\lim_{t\to1}\left[y(t)-kx(t)\right]=\lim_{t\to1}\left[\frac{t^2}{t-1}-2\frac{2t-1}{t^2-1}\right]=\lim_{t\to1}\left[\frac{t^2(t+1)-4t+2}{t^2-1}\right]=\lim_{t\to1}\frac{t^3+t^2-4t+2}{t^2-1}=$$

$$=\lim_{t\to1}\frac{(t-1)(t^2+2t-2)}{(t-1)(t+1)}=\lim_{t\to1}\frac{t^2+2t-2}{t+1}=\frac{1}{2}$$ k va b qiymatlarini $y=kx+b$ tenglamaga qo`yamiz.

Og`ma asimptota tenglamasi $y=2x+\frac{1}{2}$ ko`rinishga ega bo`ladi.

Javob: $y+\frac{1}{2}=0$ va $y=2x+\frac{1}{2}$

3. Algebraik metod orqali asimptotalarni toping.

$$x^3-2y(x+1)^2=0$$

1) $x+1=0$ da $y=\infty$ ordinata o`qiga parallel asimptota tenglamasi: $x+1=0$.

2) tenglamaga y=kx+b ni qo`yamiz.

$x^3-2(kx+b)(x+1)^2=0\Rightarrow\quad x^3-2kx^3-4kx^2-2kx-2bx^2-4bx-2b=0$,

$(1-2k)x^3-(4k+2b)x^2-(2k+4b)x-2=0.$ $1-2k=0$ va $4k+2b=0\Rightarrow k=\frac{1}{2}, b=-1$.

Javob: $y=\frac{1}{2}x-1$ va $x+1=0$.

Mustaqil yechishga masalalar

1. Quyidagi chiziqlarning asimptotalarini aniqlang.

1) $y=\frac{2x}{x-1}$; Javob: $y=2,\ x=1$.

2) $y=\frac{1}{2x^2+x-1}$; Javob: $y=0,\ x=-1,\ x=\frac{1}{2}$.

3) $y=\frac{2}{x-3}$; Javob: $x=3,\ y=0$.

4) $y=\frac{a^3}{a^2+x^2}$; Javob: $y=0$.

5) $y=\frac{x^2}{x^2-1}$; Javob: $x=\pm1,\ y=1$.

6) $y=\dfrac{3}{(x-2)^2}$; Javob: $x=2,\ y=0$.

7) $y=\dfrac{x^2}{a^2}-\dfrac{y^2}{b^2}-1=0$; Javob: $y=\pm\dfrac{b}{a}x$.

8) $y=\dfrac{1}{x^2-1}$; Javob: $x=\pm1, y=0$.

9) $x^2+y^2-x^2y^2=0$; Javob: $x=y=\pm1$.

10) $xy^2-(x-1)^2=0$; Javob: $x=0$.

2. Quyidagi chiziqlarning og`ma va koordinata o`qlariga parallel asimptotalarini toping.

1) $y=\dfrac{x^2-4x+7}{x}$; Javob: $x=0,\ y=x-4$.

2) $y=\dfrac{x^2}{x-3}$; Javob: $x=3,\ y=x+3$.

3) $y=\dfrac{x^2}{x+2}$; Javob: $x=-2,\ y=x-2$.

4) $y=\dfrac{x^2}{x+4}$; Javob: $y=x+1,\ x-1=0$.

5) $x=\dfrac{y^3}{y^2-4}$; Javob: $y=x,\ y=\pm2.$

6) $y=\dfrac{x}{2x-1}+x$; Javob: $y=x+\dfrac{1}{2}$ va $x=\dfrac{1}{2}$.

7) $x^3-2y\left(x+1\right)^2$; Javob: $y=\dfrac{1}{2}x-1,\ \ x=-1$.

8) $xy^2-y^2-4x=0$; Javob: $y=\pm2,\ x=1$.

9) $xy^2-x^2-2x+\dfrac{5}{4}=0$; Javob: $x=0$.

10) $\left(x^2-y^2\right)\left(x-y\right)=1$; Javob: $y=\pm x$.

11) $y=\dfrac{x^3}{2\left(x+1\right)^2}$; Javob: $x+1=0; x-2y-2=0$.

12) $y=\dfrac{x^3}{x^2-3}$; Javob: $y=x,\ x=\pm\sqrt{3}.$

13) $y^3-4x^2y+2x^2+y^2-5x+y+4=0$; Javob: $y=2x-\dfrac{2}{3},\ y=-2x-\dfrac{3}{4},\ y=\dfrac{1}{2}.$

3. Parametrik ko`rinishda berilgan quyidagi chiziqlarning asimptotalarini aniqlang

1) $x=\frac{3at}{t^3+1},\ \ y=\frac{3at^2}{t^3+1};$ Javob: $x+y+a=0$.

2) $x=\frac{t^2}{t-1}, y=\frac{6}{t^2-1};$ Javob: $x=-\frac{1}{2},\ \ 2x-4y-3=0.$

3) $x=\frac{2t}{(t-1)(t-2)}, y=\frac{t^2}{(t-1)(t-3)};$ Javob: $x=3,\ y=-4,\ y=\frac{1}{4}x-\frac{1}{8}.$

4) $x=\frac{2t}{t^2+1},\ \ y=\frac{t^3}{t^{2+1}};$ Javob: $x=1$.

5) $x=\frac{t^2}{t^2+1},\ \ y=\frac{t(1-t^2)}{1+t^2};$ Javob: $x=1$.

6) $x=\frac{t^2}{1-t},\ \ y=\frac{t^2}{1-t^2};$ Javob: $x=\frac{1}{2},\ y=\frac{1}{2}x-\frac{1}{4},\ \ y=x+1$.

7) $x=\frac{t^2}{1-t^2},\ \ y=\frac{t^3}{1-t^2};$ Javob: $x=-1;\ \ y=\pm(x-\frac{1}{2})$

8) $x=\frac{t}{1-t^2},\ \ y=\frac{t(1-2t^2)}{1-t^2};$ Javob: $x=0,\ x+y-2=0,\ x+y+2=0.$

9) $x=\frac{5t^2}{1+t^5},\ \ y=\frac{5t^2}{1+t^5};$ Javob: $x+y-1=0.$

10) $x=\frac{(t+2)^2}{t+1},\ \ y=\frac{(t-2)^2}{t-1};$ Javob: $2x+9=0,\ x=\frac{9}{2},\ \ x-y-6=0$.

4. Ushbu chiziqlarning asimptotalarini toping.

1) $x^3-y^3+x^2+y^2=0;$ Javob : $y=x+\frac{2}{3}$.

2) $y=x+\frac{1}{x};$ Javob: $x=0,\ \ y=x$.

3) $x(x^2+y^2)-ay^2;$ Javob: $x-a=0$.

4) $x^3-2y(x-1)^2=0;$ Javob: $y=\frac{1}{2}x+1,\ x-1=0.$

5) $x^4-4x^2y^2-6x^2-4y^2=0;$ Javob: $x-2y=0,\ \ x+2y=0.$

6) $x^2-2x^2y^2+y^4-2x=0;$ Javob: $y=\pm x$.

7) $y+x^2y^2-1=0;$ Javob: $x=0,\ y=0.$

8) $x^2-x^2y^2+y^2=0;$ Javob: $x=y=\pm 1.$

5. Qutb koordinatalar bo`yicha berilgan ushbu chiziqlarning asimptotalarini toping.

1) Nikomed konxoidasi $r=\frac{a}{\sin\varphi}+\ell;$ Javob: $y=a$.

2) Diokles sissoidasi $r=\frac{2a\sin^2\varphi}{\cos\varphi}$; Javob: $x=2a$.

3) Giperbolik spiral $r=\frac{a}{\varphi}, 0<\varphi<\infty$; Javob: $y=a$.

Yechish: $x=\frac{a\cos\varphi}{\varphi}$, $y=\frac{a\sin\varphi}{\varphi}$, $r\to\infty \Rightarrow \varphi\to 0$

$$x=\lim_{\varphi\to 0}\frac{a\cos\varphi}{\varphi}=\infty, \quad y=\lim_{\varphi\to 0} a\frac{\sin\varphi}{\varphi}=a$$

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wilhelm Klingenberg, A Course in differential geometry,1978 by Springer-Verlag, New York Inc. Printed in the United States of America.
2. M.A.Arstrong, Basic Tpology, Springer, 1998 y.
3.Сборник задач по дифференциал`ной геометрии. Под ред. Феденко А.С. М., 1979

16. Chiziqning urinmasi va normali.

Reja :

1. Urinmaning turlicha tenglamalari
2. Normal tekislik tenglamasi
3. Misollar

Tayanch tushuncha va iboralar: Chiziq urinmasi, chiziq normali , urinma tenglamasi, chiziq normalini tenglamasi.

Tekis chiziq tenglamasiga mos ravishda urinma va normal tenglamalari turlicha bo`lishi mumkin. Chiziq tenglamasi $\vec r=\vec r(t)$ ko`rinishda bo`lsa, urinma tenglamasi

$$\vec R=\vec r+\lambda \vec r_t', \qquad (1)$$

chiziq $x=x(t)$, $y=y(t)$ tenglama orqali berilgan bo`lsa, urinma tenglamasi

$$\frac{X-x}{x_t'}=\frac{Y-y}{y_t'}, \qquad (2)$$

bunda $P(x,y)$-urinish nuqta, $\vec r_t'\{x_t', y_t'\}$-urinmaning yo`naltiruvchi vektori, $M(X,Y)$-urinma to`g`ri chiziqning ixtiyoriy nuqtasi.

Tekis chiziq $y=f(x)$ tenglama orqali berilgan bo`lsa, $P(x,y)$ nuqtadagi urinma tenglamasi

$$Y-y=f_x'(x)(X-x),$$

(3)

ko`rinishda bo`lib, $F(x,y)=0$ oshkormas tenglama orqali berilgan chiziqning $P(x,y)$ nuqtasidagi urinmasi



26-chizma

$$(X-x)F'_x+(Y-y)F'_y=0, \quad (4)$$

ko`rinishdagi tenglamaga ega.

Mos ravishda normal tenglamalarini yozaylik:

$(\vec{R}-\vec{r})\vec{r}\,'_t=0,\ (X-x)x'_t+(Y-y)y'_t=0,\ X-x+f'_x(x)(Y-y)=0$

$$\frac{X-x}{F'_x}=\frac{Y-y}{F'_y}. \qquad (5)$$

Masala yechish namunalari:

1. $\vec{r}=a\vec{e}\varphi$ aylana ixtiyoriy nuqtasidagi urinmasi va normalining tenglamasini yozing, bunda $\vec{e}(\varphi)=\cos\varphi\vec{i}+\sin\varphi\vec{j}$.

Yechish:

$\vec{R}=a\,\vec{e}(\varphi)+\lambda\,a\,\vec{g}(\varphi)$-urinma. $(\vec{R}-a\vec{e}(\varphi))\,\vec{g}(\varphi)=0$ -normal, bunda $\vec{g}(\varphi)=-\sin\varphi\vec{i}+\cos\varphi\vec{j}$ $\quad |\vec{e}(\varphi)|=|\vec{g}(\varphi)|=1.$

2. $x=t^3\,, y=t^2$ egri chiziqning $M(-7,-1)$ nuqtadan o`tuvchi urinmasi va normali tenglamasini aniqlang.

